



SIRDARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



Dastlabki ma'lumot
2023- yil yanvar-iyun






CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumi ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1- iyul holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **2 839** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **57** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **2 782** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTlar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida Sirdaryo viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi **2 206,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **104,5 %** ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **177,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **94,1 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **2 028,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **105,5 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **230,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **112,0 %**) tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI


Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	2 206,3	104,5	177,6	94,1	2 028,7	105,5
Guliston sh.	837,7	104,8	71,3	92,0	766,4	106,1
Shirin sh.	29,6	103,3	0,1	51,3	29,5	103,5
Yangiyer sh.	203,4	106,5	11,7	102,4	191,8	106,8
<i>tumanlar:</i>						
Boyovut	130,4	102,1	40,2	99,8	90,2	103,1
Guliston	115,1	105,1	25,8	7,7 m.	89,3	84,1
Mirzaobod	153,4	108,4	6,8	2,1 m.	146,6	106,1
Oqoltin	52,7	102,1	1,4	98,0	51,2	102,2
Sardoba	82,7	109,7	0,9	88,2	81,8	110,0
Sayxunobod	90,2	103,8	7,2	3,0 m.	83,0	98,3
Sirdaryo	437,8	101,6	9,2	19,5	428,6	111,7
Xovos	73,3	105,7	3,0	4,1 m.	70,3	102,5

2023- yilning yanvar-iyun oylarida 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan viloyatning Yangiyer shahri (**106,5 %**), Mirzaobod (**108,4 %**) va Sardoba (**109,7 %**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi
(yanvar-iyun, mlrd.so'm)




So'nggi 6 yillikda chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2019- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2018- yilning mos davriga nisbatan **108,8 %** ni yoki **1 462,7 mlrd. so'mni** tashkil qildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati
oylar kesimida (foizda)**
(2023- yil yanvar-iyun oylari)



2023- yilning yanvar-iyun oylarida o'sish sur'ati 104,5 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Guliston shahri **38,0 %** bilan **837,7 mlrd. soʻmni** tashkil etdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, Shirin shahri **1,3 %** bilan **29,6 mlrd. soʻmni** tashkil etdi.

Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda kamayish kuzatildi.


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **2 028,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **105,5 %** ni tashkil qildi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **92,0 %** ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atga ega hududlar(foizda)



Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **5,9 %** ga kamaydi va **177,6** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **8,0 %** ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, *(foizda)*

Boyovut	30,8	69,2
Sayxunobod	8,0	92,0
Guliston sh.	8,5	91,5
Xovos	4,1	95,9
Mirzaobod	4,4	95,6
Guliston	22,4	77,6
Yangiyer sh	5,7	94,3
Sirdaryo	2,1	97,9
Oqoltin	2,7	97,3
Sardoba	1,1	98,9
Shirin sh	0,3	99,7

■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Shirin sh. (**99,7 %**), Sardoba (**98,9 %**) va Sirdaryo (**97,9 %**) hududlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi **8,0 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Boyovut (**30,8 %**), Sayxunobod (**8,0 %**), Guliston (**22,4 %**) tumanlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Sirdaryo viloyati	2 454,7	102,4
Guliston sh.	8 671,8	102,1
Shirin sh.	1532,0	102,2
Yangiyer sh.	4 337,9	103,1
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	954,8	100,3
Guliston	1 473,5	102,6
Mirzaobod	1 936,5	105,7
Oqoltin	955,8	100,3
Sardoba	1 192,0	108,1
Sayxunobod	1 101,3	101,7
Sirdaryo	3 243,0	99,8
Xovos	728,3	104,1


2023- yilning yanvar-iyun holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **2 454,7** ming. so'mni (2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **102,4 %**) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Guliston shahri (**8 671,8** ming. so'm), Yangiyer shahri (**4 337,9** ming. so'm) va Sirdaryo (**3 243,0** ming. so'm) tuman hissasiga to'g'ri keldi.


UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-iyun oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **230,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **112,0 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **64,2** mlrd. so'mni (**73,2 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **166,4** mlrd so'mni tashkil etdi (**140,9 %**).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)




Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)



UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rirlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilionlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	230,6	112,0	64,2	73,2	166,4	140,9
Guliston sh.	38,4	79,4	38,4	79,4	0,0	0,0
Shirin sh.	-	-	-	-	-	-
Yangiyer sh.	5,4	71,5	5,4	71,5	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Boyovut	6,9	89,5	6,9	89,5	-	-
Guliston	26,4	102,8	2,4	107,7	24,0	102,3
Mirzaobod	45,5	264,9	-	-	45,5	264,9
Oqoltin	-	-	-	-	-	-
Sardoba	47,5	165,1	1,0	28,7	46,4	185,1
Sayxunobod	29,8	87,6	-	-	29,9	90,7
Sirdaryo	12,3	71,3	10,1	58,9	2,2	185,5
Xovos	18,5	95,1	-	-	18,5	95,1

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shмаган holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar-iyun oylarida Viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **64 179,5** mln. so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (**29 570,6** mln. so‘m) to‘g‘ri keldi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari	Mln. so‘m
	Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari 29 570,6
	Non va non mahsulotlari 7 752,5
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 5 978,2
	Tovuq go‘shti 4 545,6
	Quritilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari (yong‘oq, bodom, pista va boshqalar) 4 812,3
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...) 4 045,9
	Tuxum 2 570,6
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak 48,2
	Ziravorlar 2 927,1
	Tuzlamalar 1 341,2
	Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari (manzarali va qishloq xo‘jaligi) 587,2
	Nooziq-ovqat tovarlari 0,0

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so'm

2023- yilning yanvar-iyun oylarida Viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **166 429,5** mln. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **135 834,7** mln. so'm, qo'y va echkilar – **25 499,9** mln. so'mni, otlar – **4 884,1** mln. so'mni, parrandalar – **210,8** mln. so'mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)	Mln. so'm
 2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar	57 465,8
 1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	22 110,2
 1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	56 258,7
 Qo'ylar	19 794,4
 Otlar	4 884,1
 Echkilar	5 705,5
 Kurka, o'rdak, g'oz	111,4
 Tovuqlar	93,4
 Quyonlar	4,7
 Qushlar	1,3

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2023- yil 1- iyul holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **629** tani tashkil etdi.


2023- yilning yanvar-iyun oylarida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **3,0 %** ni tashkil etib, **66 400,3** mln. soʻmga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **5,3 %** ga koʻpaydi. Bunda savdo aylanmasining **90,1 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga toʻgʼri keldi.

	Jami mln. soʻm	2022- yil yanvar- iyun oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mln. soʻm	2022- yil yanvar- iyun oyiga nisbatan, foizda	Yakka tartibdagи tadbirkorlik subyektlar, mln. soʻm	2022- yil yanvar-iyun oyiga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	66 400,3	105,3	59 801,0	105,2	6 599,3	106,0
Guliston sh.	32 723,7	109,7	30 851,4	109,8	1 872,3	108,0
Shirin sh.	1 264,0	100,5	1 145,7	100,0	118,2	106,0
Yangiyer sh.	9 639,0	107,6	8 609,3	107,7	1 029,7	107,0
<i>tumanlar:</i>						
Boyovut	1 965,3	83,1	1 542,9	78,6	422,4	105,0
Guliston	4 740,0	100,9	4 304,1	100,0	435,9	111,0
Mirzaobod	3 902,6	103,7	3 697,3	103,8	205,4	103,0
Oqoltin	1 656,9	104,1	1 359,3	104,6	297,6	102,0
Sardoba	1 244,8	103,1	947,9	103,3	296,9	103,0
Sayxunobod	2 127,3	104,5	1 817,9	104,9	309,4	102,0
Sirdaryo	5 924,7	99,1	4 449,9	97,5	1 474,7	104,0
Xovos	1 212,1	88,2	1 075,4	86,4	136,7	105,0

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- iyul holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **201,2** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **4,4 %** ga kamaydi. Shuningdek, kichik biznes korxonalar savdo hajmi **162,8** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **96,8 %**), xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – **38,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **90,8 %**) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot




	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Sirdaryo viloyati	201,2	100,0
Guliston sh.	72,6	36,1
Shirin sh.	0,5	0,2
Yangiyer sh.	15,0	7,5
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	5,7	2,8
Guliston	7,7	3,8
Mirzaobod	2,0	1,0
Oqoltin	55,4	27,5
Sardoba	2,8	1,5
Sayxunobod	1,3	0,6
Sirdaryo	37,6	18,7
Xovos	0,6	0,3


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Guliston shahri (**72,6** mlrd. so'm), Oqoltin (**55,4** mlrd. so'm) va Sirdaryo (**37,6** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagи tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1 516,0** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **5,9 %** ga ko‘paydi.




Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **1 191,3** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **89,9 %**ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **78,6 %** ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBEKLARI

2023- yil 1- iyul holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **1237** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **19** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **1 218** tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlari eng yirik korxonalar Boyovut (**173,3**) hamda Sayxunobod (**188,6**) tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	1 516,0	105,9	324,7	3,0 m.	1 191,3	89,9
Guliston sh.	421,3	90,0	12,6	85,5	408,7	90,1
Shirin sh.	5,5	88,8	-	-	5,5	88,8
Yangiyer sh.	80,9	89,6	0,4	92,9	80,5	89,5
Boyovut	159,1	173,3	94,0	5,2 m.	65,1	88,2
Guliston	25,8	99,5	10,8	123,9	15,0	87,1
Mirzaobod	62,5	92,5	10,2	112,6	52,3	89,4
Oqoltin	14,1	81,1	10,3	115,6	3,8	45,1
Sardoba	49,9	92,5	10,8	112,5	39,2	88,1
Sayxunobod	240,6	188,6	134,2	13,6 m.	106,6	90,4
Sirdaryo	375,5	90,3	10,6	62,5	364,9	91,5
Xovos	80,8	121,5	30,8	3,1 m.	49,7	87,8



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistika bo'limi**